IMOM G‘AZZOLIY FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLARINI O‘RGANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Isoqova Gulnoz Ulug‘bek qizi
Buxoro xalqaro universiteti, magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq Uyg‘onish davrining buyuk donishmandlaridan biri, diniy va dunyoviy bilimlar sohibi, hadis ilmining rivojiga xizmat qilgan, atoqli faylasuf Muhammad Abu Homid G‘azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarshlari va ilmiy bayoni hamda talim –tarbiyaning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritiladi. Shuningdek, Allomaning axloq, odob, iymon-e’tiqod, ilmga muhabbat, mehnatsevarlik, oila va jamiyat munosabatlariga oid qarashlari pedagogik nuqtayi nazardan baholangan.

Kalit so‘zlar: farzand, tarbiya, odob, diniy, kalom, hadis, insonparvarlik, ma’naviy fazilatlar, pedagogik, milliy qadriyat, qarash, iymon-e’tiqod, oila,g‘oya.

Bugungi kun islomiy ta’lim-tarbiya, diniy e’tiqod haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor Imom Abu Homid Muhammad G‘azzoliy shaxsi, uning merosidagi axloqiy tarbiya masalalariga alohida to‘xtalish lozim.Imom G‘azzoliy asarlarini o‘rganish va tahlil qilish, uning ijodi va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Imom G‘azzoliy o‘z asarlarida shaxs ma’naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun ko‘rish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishga oid o‘z qarashlarini bayon qilgan.Bizga ma’lumki, buyuk mutafakkirlar Imom Buxoriy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy hamda Imom G‘azzoliy ham o‘zlarining pedagogik qarashlarida yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganlar. Chunonchi, jamiyat va a’zolari rivojlanishi, yoshlar ongining taraqqiyotiga bevosita bog‘liqdir. Imom G‘azzoliy asarlarini tahlil qilish jarayonida ularning aksariyati yosh avlod, ya’ni farzandlar ta’lim-tarbiyasiga qaratilganligiga guvoh bo‘ldik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning farzand tarbiyasiga oid qarashlari ta’lim va tarbiyaning ustuvorligi , o’qituvchi va murabbiylarning jamiyatda tutgan o’rni va muhim roli ,yoshlarning tarbiyasida oilaning katta ahamiyatga ega ekanligini bilan ajralib turadi. Bu tamoyillar zamonaviy va yangi O’zbekistonning ta’lim tarbiya siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi va yosh avlodni har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan yosh avlodga alohida, davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotganligi bilan izohlanadi. Shunday ekan, bugungi yoshlarning barkamol bo‘lib shakllanishlarida umumbashariy hamda islomiy qadriyatlarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Bunda Imom G‘azzoliyning didaktik yo‘nalishdagi asarlari yosh avlodlarni barkamollikka undovchi asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi.

Imom G‘azzoliy 20 yoshida yirik pedagog sifatida o‘z faoliyatini boshlagan. 34 yoshida G‘azoliy “Nizomiya’’ madrasasining bosh mudarrisi etib tayinladi. Shundan keyin unga nafaqat olimlar, allomalar, balki davlat arboblari ham uning maslahatlariga amal qiladigan bo‘ldilar. O‘sha vaqtda Abbosiy xalifalardan bo‘lgan Mustazhir Imom G‘azoliyning bilimdonligiga tan beradi va undan botiniylarga raddiya kitob yozishini iltimos qiladi. Mazkur kitob “Mustazhiriy’’ deb nomlanadi. Shu tariqa Imom G‘azzoliyning obro‘yi yana oshib ketadi. U “Nizomiya’’ madrasasida yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish bilan bir qatorda, katta kishilar bilimini ham oshirishga harakat qiladi. Ular bilan ilmning turli sohalariga xos yo‘nalishlarda suhbatlar, savol-javoblar, bahs-munozaralar uyushtirgan.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda bunday usullar zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining metodlari sifatida e’tirof etiladi. Mazkur metodlar esa ta’lim-tarbiya jarayonida muhim o‘rin egallaydi va eng ta’sirlilari hisoblanadi. Masalan, suhbat jarayonida ustoz o‘z shogirdining

yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini uning shaxsiyatiga tegmagan holda tuzatadi. Shu tariqa madrasa tolibi mazkur kamchiliklarni boshqa takrorlamaslikka harakat qiladi. Savol-javob davomida esa toliblar ziyrak bo‘ladilar, ularning nutqlari ravonlashadi. Ular o‘zlari qiziqqan narsalar haqida bilimga ega bo‘ladilar, bilmaganlarini ustozlaridan so‘rab o‘rganadilar. Yoshlar va kattalar mazkur madrasada payg‘ambarlar hayoti, ularning din taraqqiyotida tutgan o‘rni va diniy bilimlar birga, axloq-odob me’yorlarini ham o‘rganganlar. Jumladan, mehmonga borish, mehmonlarni qabul qilish, taom eyish, kiyinish, tahorat qilish, namoz o‘qish, oila va nikoh odoblari kabilar.

Biroq, o‘sha davrlarda madrasalarda eng asosiy ilm sifatida islom dini asoslari o‘qitilgan. Bunda Qur’oni Karim, Hadislar, payg‘ambarlar hayotini yorituvchi kitoblardan tayanch vosita sifatida foydalanilgan. Bunday tashqari, yoshlar mazkur kitoblarni yod olishlari shart bo‘lgan. Imom G‘azzoliy madrasa toliblariga kitoblarni yod olish yo‘llarini ilmiy jihatdan o‘rgatgan. Ko‘rinib turibdiki, “Nizomiya” madrasasida darslar qiziqarli, bahs-munozaraga boy tarzda tashkil etilgan. Imom G‘azzoliyning o‘zi esa kuchli mudarris, ustoz sifatida barchaga o‘rnak bo‘lgan.O‘z hayoti davomida Imom G‘azzoliy bir qancha shaharlarga sayohat uyushtirgan. U borgan har bir shaharda o‘sha erlik xalq bilan ilmiy-ma’rifiy, farzand tarbiyaga oid mavzularda suhbatlar tashkil qilgan. Har bir suhbatga G‘azzoliy xalqqa farzand tarbiyasi alohida dolzarb masala ekanligini uqtiradi. Shuning uchun bu masalaga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Jumladan u shunday deydi: “Ey farzand, nasihat qilmoq oson, ammo uni qabul etmoq qiyin emish. Zero, nasihat ko‘ngil talabiga ergashib ish ko‘rguvchi kishi tabiatiga malol keladi. Sababkim, shariatda ma’n qilingan narsalar o‘sha nafs ilgidagi kishi ko‘ngliga mahbub va yoqimlidir. Xususan, yana shunday kishilargakim, ilmi kalom va mantiq ilmini ehtiyojdan tashqari talab qilib, fiqh ilmi ila keragidan ortiqcha mashg‘ul va ko‘ngillari tusagan dunyo ishlariga mubtalodirlar, - bularga ham nasihat qilmoq og‘ir kechadi. Allohni rozi qilishga va jahannamdan qutulishga kifoya qiladi”, degan gumon-ishtibohga berilganlar. Yana “ilm bo‘lgach, amalga hojat yo‘q”, qabilida ish qilurlar. Bunday ilmning o‘zi bilangina kifoyalanish - shariatni inkor qiluvchilar e’tiqodi bo‘lib, ular ilm bo‘lsa-yu, amal bo‘lmasa,- bu kabi ilmdan foyda yo‘qligini bilmaydilar Holbuki, o‘qib o‘zlashtirgan ilmiga amal qilmagan odamning qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir ”. Shuningdek, uning ta’limiy-axloqiy qarashlarida asosiy o‘rin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e’tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfikrlilik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish muhim didaktik qimmatga ega. Shu bilan birgalikda Abu Homid G'azzoliyning asarlari oilada bolalarni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. U o‘z asarlarida bolalarga bilim berishning axloqiy va diniy jihatlarini alohida ta'kidlab, tarbiya jarayonining faqat ilm berish bilan cheklanmasligini, balki axloqiy va ruhiy fazilatlarni rivojlantirishni muhim deb biladi. G'azzoliy, bolalarga to‘g‘ri axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish, ularni yaxshi odob-axloq, mas'uliyat, va yuksak ma'naviyatga yo‘naltirishda ota-onalarga rahbarlik qiladi. Uning ta'limotlari, bugungi jamiyatda ham muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy bolalar tarbiyasida axloqiy yuksalish va ma'naviy o‘sishni rag‘batlantirish zarur[9]. Abu Homid G'azzoliy ning asarlari nafaqat diniy bilim, balki axloqiy va ma'naviy tarbiya masalalarida ham katta ahamiyatga ega. Uning asarlarini o‘rganish, nafaqat ilm olish jarayonini, balki insoniy fazilatlarni shakllantirishni ham ta'minlaydi. G'azzoliy o‘z asarlarida bolalarning tarbiyasi va tarbiyalash jarayonini o‘zgacha yondashuv bilan ko‘rib chiqqan. Uning asarlarida bolalarga axloq, sabr-toqat, mehr-oqibat, haqiqat va mas'uliyat kabi muhim fazilatlarni o‘rgatishning metodlari taqdim etiladi. Abu Homid G'azzoliy ta'limi bugungi kunda nafaqat ilm olish, balki yoshlarning axloqiy, diniy va ijtimoiy jihatdan to'liq rivojlanishi uchun muhim yo'nalishlar yaratmoqda. Olib borilayotgan amaliy ishlar, uning g'oyalari asosida yoshlarni axloqiy kamolotga yetkazish, jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berish va ilmni nafaqat dunyo, balki ma'naviy rivojlanish uchun ham qo'llashni

maqsad qilgan. Bu ishlanmalar zamonaviy ta'lim tizimining kamolotga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Abu Homid G‘azzoliy yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari bilan Sharq xalqlari ma’naviyatini rivojlantirish va ular madaniyatining taraqqiyoti hamda ijtimoiy-pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Uning ta’limoti mazmunida insonni barkamollikka chorlovchi mezon sifatida aql-idrok hamda ta’lim-tarbiya yotadi. Shu nuqtayi nazardan G‘azzoliy ta’limotini o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyat o‘zining bir qadar murakkab tarixiy-ma’naviy ildiziga ega.

Imom G‘azzoliyning ma’naviy-axloqiy qarashlarini yoshlar ongiga yetkazish uchun uning hayotiy faoliyati, boy tajribasi hamda ma’naviy-pedagogik merosni taqdim etish lozim. Uning pedagogik merosi markazida farzand tarbiyasi masalasi turadi. Zero, oilada farzand o‘stirishda uning ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ayrim yoshlar islom dinining asl mohiyatini to‘la anglamaydilar. Buning natijasida ular turli ekstremistik guruhlarga qo‘shiladilar. Shuning uchun hozirgi kun ta’lim tizimida yoshlarga dunyoviy fanlar bilan bir qatorda, diniy ilmlarni ham o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Mana shu jarayonda o‘quvchi-talabalar Sharq xalqlari tarixi, intellektual-ma’naviy merosini o‘rganadilar. Shu tariqa, yoshlarda ajdodlar milliy merosi, jumladan Imom G‘azzoliyning ta’lim-tarbiyaviy g‘oyalariga nisbatan hurmat hissi vujudga keladi. Ushbu merosni o‘rganmasdan turib, milliy urf-odat va an’analar, madaniyat, qadriyatlarimiz, mazkur merosning umrboqiy imkoniyatlari hamda pedagogik jihatlarini idrok etib bo‘lmaydi.

Imom G‘azzoliyning ta’kidlashicha, ilm kishini ulug‘laydi. Shuning uchun ilm olish yo‘lida inson har qancha qiyinchiliklarga duch kelmasin, u sabr-bardoshlilik bilan bunday holatlarni engib o‘tishi zarur. Inson riyozat chekib ilm o‘rganmasdan turib hurmatli shaxs bo‘la olmaydi.

Bu haqda alloma shunday deydi: “Ey farzand, ilm olishdan murod - toat-ibodat mohiyatiga etishmoqdir. Bilgilki, toat ibodat yaxshi va yomon, go‘zal va xunuk, halol va harom ishlarda, so‘z va amalda shariatga ergashmoqdan iborat. Har vaqt so‘ylaganingi qilganing, so‘ylamaganingi qilmaganing - barchasi shariatga xosu muvofiq kelsin. Zero, shariatda yaxshi deb topilmagan ishni etmoq gunoh sanaladi. Mana, deylik, hayit va tashriq kunlarida ro‘za tutding yo birovdan kuch ishlatib tortib olgan libosda namoz o‘qiding, bular garchi zohiran ibodat sanalsada, shariatga muvofiq kelmasligi sababli baribir gunohkor hisoblanasan.

Ey farzand, aytar so‘zing ham, fe’l-atvoring ham shariatga xilof kelmasligi lozim. Chunki shariatga muvofiq kelmagan ilm ham, amal ham insonni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itguvchidir. Va yana lozimdurki, nodon so‘fiylarning shariatdan tashqari gaplariga alahsimagaysan. Sen ularning suvratiga emas, siyratiga boq. Zeroki, tasavvuf (so‘fiylik) maqomi ibodatga batamom kirishmoq, nafsoniy shahvatni qirqmoq va nafs moyil bo‘lib turgan nimarsani riyozat shamshiri birla chopmoq ila voqe’ bo‘lur; nimaiki voqe’-botindadur. Va lekin shariatga qarshi so‘zlash yoxud shariat ichra bid’at ig‘volar qilib, bid’at gaplarni og‘izlamoq so‘fiylikdan emas ”.

Demak, har bir shaxs o‘rgangan bilimining mazmun-mohiyatini tushunib etishi lozim. Shu bilan bir qatorda, ilmni o‘rganib unga amal qilish, boshqalarga ham o‘rgatish muhim ijobiy xislatlardan biri hisoblanadi. Imom G‘azzoliyning ta’kidlashicha, bunday faoliyat asosan muallimlar, ustozlar va mudarrislar orqali amalga oshiriladi.

Alloma o‘z asarlarida ustozlar o‘z shogirdlariga ilm o‘rgatish bilan bir qatorda, ularni o‘rganganlariga amal qilish, kishilarga yaxshilik qilish, nochorlarni kamsitmaslikka oid bilimlarni o‘rgatishlari lozimligini uqtiradi. Uning aytishicha, olim kishilar zamona chiroqlaridir. Har bir olim zamonasining chirog‘i bo‘lib, o‘sha zamondagi kishilar ularning nuridan foydalanadi. Ammo, ilmni hammaga emas, uni istagan, intilgan odamga o‘rgatish lozim, istamagan kishiga o‘rgatish ilmni zoe qilishdir. Ilmni zoe qilish esa katta gunoh

hisoblanishini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham ustoz-murabbiylar shogirdlariga xuddi ota-onalardek mehribon bo‘lishlari lozim.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Imom G‘azzoliy nafaqat ilohiyot ilmi olamida, balki falsafa, uning bilish nazariyasi va ruhiy olamini ham chuqur bilgan. Inson ruhiy olamini bilish u kishiga diniy ta’limot va ilmni kishilarga o‘rgatishda ma’naviy, ruhiy olamining xususiyatlarini hisobga olib ta’sir ko‘rsatish usullaridan kelib chiqishga imkon bergan bo‘lsa, falsafiy bilim insonni ilm o‘rganishda bilish jarayonlaridan kelib chiqish imkoniyatini bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “ Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz “. Toshkent “ O’zbekiston “ 2017.

2. Isoqova Gulnoz Ulug’bek qizi Imom G‘azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o’rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi ISSN 3030-3710(P) ISSN 3030-3095(E) N 9,2025

3. Nabiyeva Aziza Komil qizi IMOM G’AZZOLIY FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLARINI O’RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. https://scientific-jl.com/ped/issue/view/82

4. Abu Homid G’azzoliy “Ey farzand”/Toshkent: ”Book Media Shop” MCHJ qoshidagi Munir nashriyoti,2021.-96b

5. www.ziyouz.com

6. https://www.ziyonet.uz/